



SINTAKSIS BO'LIMINING O'QUV JARAYONIDAGI ROLI

G'aniyeva Shodiya Azizovna

Farg'ona davlat universiteti professori, filologiya fanlari doktori (DSc)

Nabiyeva Omadxon Rahmonberdi qizi

Farg'ona davlat universiteti 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich ta'limda sintaksis bo'limi materiallarini o'qitishning mazmuni va o'quv jarayonidagi o'rni yoritiladi. Maqolada sintaksis bo'limi asosida kommunikativ yondashuvni qo'llashning afzalliklari, interaktiv metodlar orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, muloqotga kirishish ko'nikmalarini rivojlantirish yo'llari, o'qitishning an'anaviy va innovatsion metodlari taqqoslangan, ularning afzallik va kamchiliklari ko'rsatilgan. Shuningdek, sintaksis bo'limini o'qitishning samaradorligini oshirish uchun amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: sintaksis, integratsiyalashgan yondashuv, bosqichma-bosqich o'qitish, amaliy yondashuv, morfologiya va sintaksis bog'liqligi, leksikologiya, til tizimi, gap bo'laklari, sintaktik konstruksiyalar, o'quv jarayoni, kommunikativ kompetentlik.

KIRISH

Sintaksis grammatikaning bir qismidir. Grammatika so'z tuzilishini va gap tuzilishini, demak, tilning grammatik qurilishini o'rgatadigan fandır. Grammatika qurilishi tilning asoslaridan biridir: har bir tilning negizi uning grammatik qurilishi bilan leksikasidir. Grammatika morfologiya va sintaksisni o'z ichiga oladi. Morfologiya so'zning strukturasini: so'z formalari, ularning hosil bo'lish yo'llarini, so'zning nutqda o'zgarish qonunlarini belgilaydi — so'zlarning morfosemantik va leksik-grammatik kategoriyalarini, so'z turkumlarini o'rgatadi[2].

Sintaksis bo'limining murakkabligi gap qurilishi, so'zlar o'rtasidagi aloqalar, gap bo'laklari, ularning vazifalariga doir qoidalarining ko'pligi bilan izohlanadi. Shuningdek, sintaksisni o'zlashtirishda morfologiya, leksikologiya kabi boshqa til bo'limlaridan yetarli bilimga ega bo'lish talab etiladi[4].

Morfologiya odatda so'z yasaliishi masalalarini ham tekshiradi; sintaksis esa so'z birikmasi va gaplarda so'zlarning birikish yo'llarini, ularning strukturasini, tiplari, gap bo'laklarini tekshiradi. So'zlarning nutqda o'zgarib, yangi shakllarni olishi odatda ularning boshqa so'z bilan bog'lanishini ko'rsatadi. Masalan, uning daftarni, maktabda edi. Yana shu o'rinda kelgan affikslar morfologik xususiyatga ega. Shuningdek, sariq kitob kabi qo'shma shakllar ham sintaktik bog'lanishni bildiradi, bu yerda so'zlar so'z birikmasi va gap bo'laklari sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot metodologiyasi sifatida ilmiy-nazariy tahlil, qiyosiy tahlil va umumlashtirish metodlari qo'llanilgan. O'zbek, rus va xorijiy tadqiqotchilarning sintaksis o'qitish metodikasiga oid ilmiy ishlari tahlil qilindi. Sintaksis o'qitish metodikasi bo'yicha O'zbekistonda G'ulomov A., Asqarova M., Qo'ng'urov R., Abduraimova M. kabi olimlarning tadqiqotlari mavjud [1]. G'ulomov A. o'zining "O'zbek tili o'qitish metodikasi" asarida sintaksis bo'limini o'qitishning nazariy asoslarini ishlabchiqqan [3]. Olim sintaksis



o'qitishda nazariya va amaliyot uzviyligiga alohida e'tibor qaratadi. Rossiyalik olimlardan V.V. Babaytseva, L.A. Trostentsova, T.A. Ladijenskaya, M.T. Baranov kabi tadqiqotchilar sintaksis o'qitish metodikasiga salmoqli hissa qo'shgan.

Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish sintaksis o'qitishda keng imkoniyatlar yaratadi. Bu texnologiyalar elektron taqdimotlar, interaktiv o'quv dasturlari, mobil ilovalar, onlayn mashqlar va testlar, video darslarni o'z ichiga oladi. Masalan, "Quizlet", "Kahoot", "LearningApps" kabi platformalar sintaksisga oid interaktiv mashqlar yaratish imkonini beradi. Bu esa o'quvchilarning qiziqishini oshiradi va o'qitish jarayonini yanada samarali qiladi. Integratsiyalashgan yondashuvda sintaksisni boshqa til bo'limlari bilan bog'lab o'qitish samarali natija beradi. Bu yondashuv morfologiya va sintaksis aloqadorligi, leksikologiya va sintaksis bog'liqligi, matn tuzish va sintaktik konstruksiyalar o'rtasidagi bog'liqlikni nazarda tutadi. Integratsiyalashgan yondashuvda sintaktik birliklar izolyatsiyada emas, balki til tizimining ajralmas qismi sifatida o'rganiladi. Bu o'quvchilarga tilning tizimli tabiatini tushunishga yordam beradi.

Bosqichma-bosqich o'qitish tamoyilida sintaksis bo'limini o'qitishda oddiydan murakkabga tamoyiliga rioya qilish muhim ahamiyatga ega. Bu tamoyilga ko'ra avval sodda gaplar, keyin qo'shma gaplar; dastlab asosiy gap bo'laklari, so'ngra ikkinchi darajali bo'laklar; oldin gap bo'laklari, keyin ularning tinish belgilari bilan bog'liq xususiyatlari o'rgatiladi. Bosqichma-bosqich o'rganish o'quvchilarning bilimlarini tizimli ravishda oshirib borishga imkon beradi va ularning kognitiv yuklamasini kamaytiradi.

Amaliy yondashuvga asoslangan o'qitishda sintaksisni amaliy maqsadlar uchun o'rgatish o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi. Bu yondashuv matn yaratish va tahrirlash jarayonida sintaktik bilimlarni qo'llash, to'g'ri va ifodali nutq uchun sintaktik konstruksiyalardan foydalanish, badiiy asarlardagi sintaktik vositalarni tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Ushbu yondashuv o'quvchilarga sintaktik bilimlarning amaliy ahamiyatini tushunishga yordam beradi va ularni real hayotda qo'llash ko'nikmalarini shakllantiradi.

Xulosa

Sintaksisni o'qitishda integratsiyalashgan, bosqichma-bosqich va amaliy yondashuvlarning uyg'un qo'llanilishi o'quvchilarda grammatik bilimlarning tizimli shakllanishiga xizmat qiladi. Integratsiyalashgan yondashuv morfologiya, leksikologiya va sintaksis o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni yoritib, til tizimini yaxlit holda anglash imkonini beradi. Bosqichma-bosqich o'qitish tamoyili oddiydan murakkabga qarab o'rgatish orqali o'quvchilarning kognitiv yuklamasini kamaytiradi va bilimlarni izchil egallashni ta'minlaydi. Amaliy yondashuv esa sintaktik bilimlarning real nutq jarayonida qo'llanishini mustahkamlaydi, o'quvchilarda matn yaratish, tahrirlash va ifodali nutq ko'nikmalarini rivojlantiradi. Ushbu yondashuvlarning birgalikda qo'llanilishi sintaksis bo'limini samarali o'qitish, o'quvchilar kompetensiyasini oshirish va ular nutqiy faoliyatini takomillashtirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAT RO'YHATI:

1. Abduraimova, M. Sintaksis o'qitishning lingvodidaktik asoslari. 2020, Tilshunoslik masalalari, B 45–58.



2. G‘ulomov, A. G‘., & Asqarova, M. A. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent-1965 O‘qituvchi.
3. G‘ulomov, A. Sintaksisni o‘qitishda innovatsion texnologiyalar. Ta’lim muammolari 2017, B 78–89.
4. MODERN SCIENCE AND RESEARCH (2025). International Scientific Journal, Halilova Dilshoda.